

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TARBIYACHILARNI
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgor maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasiga qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi yo'nalishga oid 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirilarini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test*

topshiriqlari) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Maktabgacha pedagogikaning asoslari		
1.1. Tarbiya jarayoni: mazmuni va mohiyati	-Tarbiyaning mazmuni, mohiyati, tamoyillari va turlarini bilish; -maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalarini tushunish; -shaxsni shakllantiruvchi omillarni bilish; -maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari hamda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib ishlash; - ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, shakllanish va rivojlanish tushunchalarini farqlash.	4
1.2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining asosiy vazifalari	-Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi shaxsiga qo'yiladigan talablarga amal qilish; -tarbiyachining kasbiy kompetentligining uch jihatini bilish; -tarbiyachi faoliyatlarni MTT pedagogining kasbiy standarti asosida tashkil etish.	2
2. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni tarbiyalash mazmuni		
2.1. Tarbiya turlari	-Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish; -axloqiy tarbiya ijtimoiy tarbiya jarayoninining tarkibiy qismi sifatida o'rganish; -aqliy rivojlanishninhg tarkibiy qismlarini bilish; -MTTda iqtisodiy tarbiya berish; -huquqiy tarbiyani tashkil etish; -ekologik tarbiya va ekologik muhitni tashkil etish; -bolalar mehnatining asosiy turlarini farqlash va ularni amalda qo'llash; -bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish.	6
3. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni o'qitish mazmuni va uslubiyoti		
3.1. Ta'lim va tarbiya jarayoni	-Ta'lim nazariyasi, og'zaki, amaliy, ko'rgazmali ta'lim metodlari qo'llay olish; -nutq o'stirish, badiiy adabiyot, savodga o'rgatish uslubiyoti asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish;	5

	-maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishdagi pedagogik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash; -sensor tarbiya, matematik tasavvurlarni shakllantirish; -tasviriy faoliyat, sahnalashtirish va ijodiy faoliyat turlarini farqlash va tashkil eta olish; -ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olish.	
3.2. O'yin -bola faoliyatining asosiy turi	-ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'yin turlarini farqlash; -maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida o'yinning ahamiyatini anglash.	2
3.3. Maktabgacha ta'limga oid normativ-huquqiy asoslar va tizim talablari(Qonun, qaror, "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi)	-“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun talablarini bilish va amaliy faoliyatda tatbiq etish; -bolaning hayoti va salomatligini muhofaza qilish; -zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish; -MTT guruhlarining kun tartibini to'g'ri shakllantirish; - ta'lim jarayonlarini to'g'ri rejalashtirish; - pedagogning ish hujjatlarini to'g'ri yurita olish; -ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish.	6
3.4.Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv	-maktabgacha yoshdagi bolaning tayanch kompetensiyalarini bilish; -bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini rivojlantirish asosida faoliyatlarni belgilay olish; -shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish; -ta'lim olishda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etish.	4
3.5.Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini kuzatish	-maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning ta'lim olishi va rivojlanishini kuzatishlarni to'g'ri tashkil etish; -kuzatuv natijalarini tahlil eta olish; -bola rivojlanish xaritasini hujjatlashtirish.	3
3.6. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish	-Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish, -ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish; -rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda olib borish.	3
Jami		35 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

2-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik psixologik kompetensiyalar	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘rinish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o‘zaro munosabatlar) mazmunini, model loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig‘i va bosqichlarini, ta’lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo‘llay olishi	5
1.2. Bolalar rivojlanishini qo‘llab quvvatlash	–“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish; – bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	2
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish,tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3
II. KASBIY STANDART		5 ta
2.1. Kasbiy standart	– kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga	5

	qo'yiladigan bilim-ko'nikma-malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko'rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; – kasbiy standart bo'yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni quyidagi yo'nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	
--	--	--

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Yo'nalishga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan

chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 14-noyabr, O‘RQ-996-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son Qarori, 2025 yil 8-iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018-yil 30-apreldagi 20/1, 10-qq/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM”
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 323-son buyrug‘i.
6. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi. Uchinchi nashri. Toshkent, 2026 yil.
7. Sh.A.Sadikova. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. Tafakkur bo‘stoni nashriyoti. 2013.
8. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. Tafakkur bo‘stoni nashriyoti. 2019.
9. I.V.Grosheva, Sh.Sh.Mirziyoyeva, X.U.Rizayeva, I.V.Kuryayeva, Y.A.Nekrasova, Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z. “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” Ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun parsial dastur, Toshkent- 2022.
10. I.V.Grosheva, N.S.Shivaldova, I.V.Kuryayeva “MTM hududida ekologik so‘qmoq tashkil etish”, Toshkent- 2022.
11. Z.S.Qodirova, O.E.Akbarov, F.A.Abdug‘opirova, Sh.Sh.Xojimirzayeva, Sh.B.Jumanova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish”. Darslik. Namangan – 2024.
12. M.R.Is‘hoqova, M.Z.Fayzullaeva, J.R.Kucharov, N.Q.Azizova, N.M.Sultonova “Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatish” Toshkent -2018
13. X.Meliyev, O.Jamoldinova. K.Risqulova “Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati” Тошкент – 2021.
14. D.R.Babayeva. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Darslik. Toshkent, “Barkamol Fayz media” 2018.
15. N.U.Bikbayeva, Z.I.Ibragimova, X.I.Qosimova “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” T. “O‘qituvchi”,

1995-y.

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.

Normativ-huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonuni. 2024.

***Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to’g’ridan to’g’ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko’rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko’ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*